

INTERFAOL METODLARNING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

Alibekov Davron Abdurakibovich

O'zMU Jizzax filiali Oila psixologiyasi kafedrasini mudiri, falsafa doktori (PhD)

alibekovdavron252@mail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik faoliyatda interfaol yondashuvning imkoniyatlari va interfaol metodlarning xususiyatlari haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: yondashuv, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, ta'lim

Bugungi kunda jamiyatning turli sohalaridagi islohatlarning amalga oshirilayotganligi kelajak avlod oldiga muhim vazifalar qo'yadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Vazirlar mahkamasining ta'limga oid qator qarorlaridan ko'zlangan maqsad bilimli, ijodkor, izlanuvchan, dunyoqarashi keng, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan yoshlarni yoshlarni tarbiyalashdan iboratdir. Bunday vazifalarni to'laqonli amalga oshirish uchun ta'lim sifatiga e'tibor qaratish lozim.

O'zbekiston Respublikasidagi amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohatlarning asosiy maqsadi – barkamol shaxs va malakali mutaxassislarni tarbiyalashdan iboratdir.[1]

Ta'lim-tarbiyaning davlat va jamiyat uchun qadr-qimmatini oldindan belgilovchi ijtimoiy negizlar muhimligiga qaramay, ular asosiy narsani ta'limning shaxs bilan bog'liq qadriyatlarni, ya'ni insonlarning o'z bilimiga, uning darajasi va sifatini oshirishga rag'batlantiradigan munosabatlarini aks ettirishi lozim.

Ta'lim jarayonining sifati, tarkibidagi umumiy va xususiy jihatlarni, ularning o'zaro bir-birini to'ldirishi, boyitib borishini ko'rish muhimdir. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, interfaol metodlarning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni va ahamiyatini asoslab o'tish joizdir.

Avvalo interfaol tushunchasi nimani anglatishiga to'xtalib o'tamiz. Interfaol metodlar – talabalarning o'zaro muloqati va o'zaro ta'siridagi dars jarayonini amalga oshiruvchi usul – "Interaktiv" so'zi inglizcha so'zdan olingan bo'lib, "Interakt", ya'ni inter – bu "o'zaro", akt – "harakat, ta'sir, faollik" ma'nolarini bildiradi. Interfaol metodlar orqali tashkil etilgan darslar talabani ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrini yozma va og'zaki ravishda bayon etishga chorlaydi.[2]

Interfaollik – o'qituvchi va talaba muloqatlarida sodir bo'ladi. Interfaol metodlardan foydalanib dars o'tishning bosh maqsadi ta'lim jarayoni uchun qulay sharoit va vaziyatlar yaratish orqali talabaning ijodiy, faol, erkin fikrlashi uchun muhit yaratib berishdan iboratdir. Ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llashda o'qituvchining o'rni beqiyosdir. O'qituvchi interfaol metodlarni tanlashda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- o'qitish usuli, o'qitish faoliyati usullari usullari bilan chambarchas bog'liq bo'lishiga;
- maqsadga erishishda o'qituvchi va talaba hamkorligi o'z aksini topishi shart ekanligiga;
- talabalarning individual psixologik xususiyatiga;
- berilayotgan ma'lumotlarning izchilligiga va tizimligiga.

Hozirgi kunda keng qo'llanilayotgan interfaol metodlar ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Bular: aqliy xujum, yalpi fikriy xujum, klaster, qarorlar shajarasi, zig-zag, qora quti, 6X6X6, BBB, sinkveyn, charxpalak, venn diagrammasi kabi metodlardir.

Ta'lim jarayonida ushbu metodlar qo'llanilganda:

- muayyan nazariy bilimlarni puxta o'zlashtirilishiga;
- vaqtdan unumli foydalanishiga;
- talabalarning erkin fikrlashi shakllanishiga;
- dars jarayonida har bir talabani faol ishtirok etishiga;
- o'zgalar fikrini tinglay olishiga;
- o'z fikrini himoya qila olishiga;
- bildirilgan fikrlarni umumlashtira olish ko'nikmasi shakllanishiga olib keladi.

Shunday qilib ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llashda o'qituvchi ta'lim jarayonining boshqaruvchisi vazifasida bo'lib, bunda boshqaruv maqsadi ta'limning ob'ekti va sub'ekti sifatida talabaga yo'naltiriladi. Demak, interfaol metodlar ta'lim mazmuni, usul, shakl va vositalar asosida yuzaga keladi. Ushbu jarayon kafolatlangan natijaga erishishga yo'naltiriladi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchilarda pedagogik faoliyatni interfaol metodlar asosida tashkil etish malakasini shakllantirishda quyidagi tamoyillarga amal qilish asosida erishiladi;

1. Ta'lim jarayonini interfaol metodlar asosida tashkil etish borasidagi yagona maqsadning qaror topganligi.
2. Ta'lim jarayonini interfaol metodlar asosida tashkil etish borasidagi harakatning izchil, maqsadga muvofiq, tizimli va uzluksiz amalga oshirilishi.
3. Ta'lim jarayonini interfaol metodlar asosida tashkil etishda mavjud shart-sharoit hamda sub'ektiv yondashuvlarni inobatga olish.
4. Pedagogik mahoratni erkin namoyish etish.
5. Ta'limda nazariy va amaliy faoliyat birligi.
6. Ta'lim jarayonini interfaol metodlar asosida tashkil etishda xorijiy tajribalarga tayanish.

Ta'lim jarayonini interfaol metodlar asosida tashkil etish quyidagi omillar asosida amalga oshiriladi:

1. Ob'ektiv omillar:
 - ta'lim jarayoni uchun moddiy-texnik bazaning yaratilganligi;
 - ta'lim jarayonida pedagogik monitoring tashkil etilganligi va uning adabiyotlar bilan ta'minlanganligi;

2. Sub'ektiv omillar:

- ta'lim jarayonining o'qituvchilarda interfaol metodlar mohiyatini o'rganishga nisbatan qiziqishning yuzaga kelganligi;
- ta'lim jarayonining o'qituvchilarning interfaol metodlar mohiyatidan xabardorligi;
- ta'lim jarayonining o'qituvchilarning o'z pedagogik faoliyatlarida interfaol metodlarni qo'llay olish mahoratiga ega ekanligi;
- o'qituvchilarda ijodkorlik, izlanuvchanlik, talabalar o'rtasida ko'tarinki kayfiyatni yarata olish sifatlarining mavjudligi;
- interfaol metodlar asosida pedagogik faoliyatni tashkil etayotgan o'qituvchilarni rag'batlantirib borish.

O'qituvchilarning pedagogik faoliyatini interfaol metodlar asosida tashkil etish borasidagi mahoratlari darajasi quyidagi ko'rsatkichlarga muvofiq belgilanadi:

- ta'lim jarayonida o'qituvchilarning talabalar bilan muloqatini muvaffaqiyatli tashkil etish, pedagogik faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuv, pedagogik vaziyatlarni baholay olish va ularga muvofiq xatti-harakatni tashkil etish malakalari shakllanganligi;
- pedagogik faoliyat mazmuni, sur'ati va samaradorligining yuqori darajasi.[3]

Interfaol metodlar yana shunisi bilan ahamiyatli, o'qituvchi talabaning fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina vaqti bilan to'g'ri xulosani aytib ketadi. Natijada talaba xatosini o'zi tushunib yetadi. Bu esa ularni tushkunlikka tushish, fikrlashda tormozlanish kabi xatolarning oldini oladi. Interfaol metodlar o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro hurmatga asoslanadi. O'qituvchi qanday bo'lmasin talabaning fikrini tinglaydi va hurmat bilan qarashini bildiradi. Shu bilan talabalarni bir-birlarini tinglashga o'rgatadi. Qo'shimchalar "sizning fikringizga qo'shilgan holda qo'shimcha qilamiz", "bizning ham ba'zi fikrlarimiz bor" kabi so'zlar orqali bildiriladi. Bunday tarzda tashkil etilgan darsda talaba o'zini hurmat qilayotganini sezadi. Bunday sharoitda hech qanday tayziqsiz erkin fikrlay boshlaydi va uni ochiq bayon eta oladi. Shu bilan birgalikda u boshqalarni hurmat qilishga o'rganadi.

Intaerfaol metodlar talabalarda doimiy faollikni ta'minlaydi. Talabalar dars davomida bo'sh qolmaydilar, ular tegishli mavzuga oid biror muammo bilan band bo'ladilar. Natijada talabalar darsdan tashqari narsalar bilan shug'ullanmaydi.

Interfaol metodlardan foydalanishda o'qituvchi eng avvalo, darsning texnologik loyihasini tuzib olish lozim. Darsni texnologik loyihalash uchun esa o'qituvchi interfaol metod strategiyalari va usullari bilan tanish bo'lishi kerak. O'qitish usullariga esa quyida ko'rsatilgan muayyan talablar qo'yiladi:

- o'quv materialini o'rganishning o'qituvchi tavsiya etgan yo'li mustaqil qarashlar, irodaviy xususiyatlari va hulqning shakllanishiga olib borishi kerak;
- o'qitish metodining ilmiy asosi yaqqol va ariq bo'lishi lozim. Shundagina o'qituvchi mazkur metod orqali qanday masalalar qo'yilishi va hal qilinishi mumkinligini ko'ra oladi;

- o'qitish metodining tushunarligi talaba uchun qabul qilinishi va qo'llanilishi, o'quv materialini o'rganishning usuli va bilimlarni o'zlashtirishning imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi zarur;
- o'qitishning onglilik va faollik tamoyiliga jiddiy e'tibor qaratish kerak.

Har qanday metoddan biror maqsadga erishish ko'zda tutiladi va shuning uchun u qandaydir maqsad qo'yishni, unga erishish bo'yicha faoliyat usulini, ana shu faoliyatni amalga oshirishda yordam beradigan vositalarni bilish taqozo etadi. Har qanday faoliyat uning ob'ektini talab etadi. Nihoyat metod maqsadga olib borishi kerak, aks holda, u qo'yilgan maqsad yaroqsizligini yoki bu holatda uni umuman noto'g'ri qo'llanilganligini e'tirof etish lozim.

Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiya pedagogik texnologiyalardan foydalanish, interfaol metodlarni qo'llab dars o'tish bugungi kun ta'limining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki, ta'lim jarayoniga qo'yilayotgan eng asosiy talablardan biri an'anaviylikdan ya'ni bir xillikdan chekinib, har bir darsimizda har xil usullardan foydalanib o'tishni taqozo etadi. Dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish orqali talabalarga berilayotgan ta'lim sifati yanada oshadi.

Interfaol metodlar o'qituvchi – talaba hamda talabalarning o'zaro faoliyatida namoyon bo'ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi o'quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali talabaning faol hamda erkin fikr yuritishiga muhit yaratishdir. Interfaol metodlar asosida o'tgan darsni tashkil etish shunday kechadiki, ushbu jarayonda birorta talaba chetda qolmaydi, ya'ni bilgan, o'ylagan fikrlarini ochiq oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ta'lim jarayonini interfaol metodlar orqali tashkil etishda quyidagi o'qitish muhiti yaratiladi:

- o'qituvchi va talaba o'rtasida sog'lom muhit yaratiladi;
- talabalar o'qish va tadqiqot ishlarida bir-biriga ko'maklashadi;
- o'quv materiallariga ega bo'ladi;
- ijodkorlikka rag'bat beriladi;
- fikrlarni almashishga va mulohaza qilishga imkon yaratiladi;
- nutqiy rivojlanish rag'batlantiriladi;
- ma'lumotlarni mustaqil olish ko'nikmalari shakllanadi.

Hozirda ta'lim jarayonida talabalarni bilim olishlari bilan birgalikda ularni erkin va mustaqil fikrlashga o'rgatish talab qilinmoqda. Zero mustaqil fikrga ega bo'lgan yoshlar vatanni sevadi, ona tabiatga ongli munosabatda bo'ladi, kelajakka umid bilan qaraydi. Ushbu fazilatlarni talabalarda tarkib toptirishda interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonini tashkil qilishda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi ta'limiy va tarbiyaviy ishlarni shakllantirish ko'nikmasi shuningdek, ijodiy qobiliyatlarni hosil qilishda treninglardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida (*O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami*, 2017 y., 6-son, 70-modda)

2. Yaxshilikov J., Muhammadiev N. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. -Toshkent, "Cho'lpon", 2018. –B. 549.
3. Gimush R., Matmurodov F. Innovatsion menejment. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2008. –B. 14.
4. Emirov N. Faktor innovatsionnoy deyatelnosti v sotsialnoy sfere. www.m-economy.ru/art.php.
5. Rapasevich Ye. Bolshaya sovremennaya ensiklopediya. – Minsk, Sovremennoe slovo, 2005. -S. 198.
6. Alibekov, D. (2020). Socio-philosophical basis of educational system development. ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (90), 24-26. SoI: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-10-90-6> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.10.90.6>
7. Alibekov D. SOTSIALNO-FILOSOFSKIE OSNOVY RAZVITIYa SISTEMY OBRAZOVANIYa //Jurnal muzyki i iskusstva. – 2021. – T. 2. – №. 2.
8. Farsakhanova, Dilafruz, and Davron Alibekov. "Technology to improve the quality of education based on educational values." *Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI* (2020).
9. Alibekov, Davron. "Sharq mutafakirlarining ta'lim-tarbiya borasidagi qarashlari." *Jurnal muzyki i iskusstva* 2.1 (2021).
10. Alibekov, D., & Abduraqibova, D. (2023). TA'LIM TIZIMINING STRATEGIK RIVOJLANISHIDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7730>
11. Shamsidinovna, A. M. (2023, April). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA BERILADIGAN TA'LIM MAZMUNI. In E Conference Zone (pp. 22-25).
12. Adilova, M. (2023). THE PSYCHOLOGICAL EFFECT OF TRAPS IN THE SOCIAL NETWORK ON YOUTH MIND AND SPIRITUALITY. Open Access Repository, 4(2), 500-505.
13. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). SHAXS EMOTSIONAL INTELLEKTINING PSIXOLOGIK VA PSIXOFIZIOLOGIK JIXATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2).
14. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). AGRESSIYA–OSMIRLARDA YUZAGA KELADIGAN TAJOVUZKORLIK RIVOJLANISHIGA TASIR ETUVCHI FENOMEN SIFATIDA. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).
15. Muratovich, M. E., Kurbon, O., & Shamsiyevna, A. M. (2022). Some features of the formation of mathematical representations in preschoolers in the process of familiarizing them with the size and shape of objects.
16. Umdjon, Y., & Madina, A. (2023, April). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLADA O 'ZINI-O 'ZI ANGLASHDA OILANING ROLI. In E Conference Zone (pp. 11-16).
17. Umdjon, Y., & Madina, A. (2023, April). PROFESSIONAL MOTIVATION AND ITS STRUCTURE IN THE MANAGEMENT PROCESS. In E Conference Zone (pp. 11-16).

- 18.Madina, A., & Lobar, R. (2023). HUQUQIY ONG TUSHUNCHASINI O'RGANISHNING NAZARIY JIHATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 375-379.
- 19.Madina, A., & Donoxon, M. (2023). OILADA YOSHLARNI TOLERANT MADANIYATLI QILIB TARBIYALASH VA IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK OMILLAR. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 353-358.
- 20.Madina, A. (2023). BOLALARDA AHLOQIY FAZILATLARNI PSIXOLOGIK SHAKLLANTIRISH USULLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 340-345.
- Shamsidinovna, A. M. (2023, May). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA 12.AHLOQIY JIHATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JARAYONLARI. In *E Conference Zone* (pp. 6-12).
- 21.Shamsidinovna, A. M. (2023, April). MAKTAB O'QUVCHILARINING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI O'RGANISHNING AHAMIYATI. In *E Conference Zone* (pp. 1-5).